Qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	600
<i>Venera Allashova Tanirberdievna</i>	
Интеграция искусственного интеллекта в образование: польза или вред.....	602
<i>Karimbayev Atabek Merdanovich</i>	
Tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish usullari	606
<i>Xolmurodova D. K., Safarova N. S.</i>	
Intellektual avlod – sog'lom jamiyat poydevori: tibbiyot talabalarining o'quv jarayonida kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.....	610
<i>Tursunbekova Nozima</i>	
Sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	613
<i>Roziqov Normurod Elmonovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	618
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....	622
<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyalı bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abdurahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abdurahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
У. Ш. Салимов	



18–21 YOSHDAGI TALABA FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATI JARAYONIDA HUJUM HARAKATLARINING MIQDORIY VA SIFAT KO'RSATKICHLARI

Djemilov Temur Rasimovich

Navoiy davlat universiteti
“Jismoniy madaniyat” kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida futbolchilarning hujumdagi ishtirok faolligi, gol urish imkoniyatlari, to'p uzatish aniqligi hamda qarshi hujumlardagi samaradorligi kabi asosiy parametrlar o'rganildi. Sport faoliyatini baholash jarayonida statistik tahlil usullari qo'llanilib, hujum ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlangan. Olingan natijalar talaba futbolchilarning hujum faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: talaba futbolchilar, hujum harakatlari, miqdoriy ko'rsatkichlar, sifat ko'rsatkichlar, futbol tahlili, musobaqa faoliyati.

Abstract: This paper presents a systematic analysis of quantitative and qualitative indicators of attacking actions performed by student football players aged 18–21 during competitive performance. The study examines key parameters, including offensive involvement, goal-scoring opportunities, passing accuracy, and effectiveness of counterattacking actions. Statistical analysis methods were employed to identify correlations among the main indicators of attacking performance. The findings demonstrate practical relevance and provide a scientific basis for developing methodological recommendations aimed at optimizing attacking actions in student football.

Key words: student football players, attacking actions, quantitative indicators, qualitative indicators, football analysis, competitive performance.

Аннотация: В статье представлен системный анализ количественных и качественных показателей атакующих действий студенческих футболистов в возрасте 18–21 года в процессе соревновательной деятельности. В ходе исследования изучены показатели участия в атаке, вероятность взятия ворот, точность передач, а также эффективность контратакующих действий. С применением статистических методов выявлены взаимосвязи между основными параметрами атакующей деятельности. Полученные результаты имеют практическую значимость и могут быть использованы при разработке методических рекомендаций по оптимизации атакующих действий студенческих футболистов.

Ключевые слова: студенческие футболисты, атакующие действия, количественные показатели, качественные показатели, футбольный анализ, соревновательная деятельность.

KIRISH

Futbol – jahon miqyosida eng ommabop sport turlaridan biri bo'lib, yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati samaradorligi ularning keyingi sport faoliyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish hamda yosh iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “O'zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–262-sonli¹ Farmoni futbol infratuzilmasini yangilash, raqamli platfor-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “O'zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–262-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-7696588>

malarni joriy etish hamda yoshlarni faol sport bilan shug'ullanishga keng jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5368-sonli² Farmoni futbol sohasida murabbiy va hakamlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, iqtidorli futbolchilarni seleksiya qilish hamda ularni professional darajaga yetkazishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar yosh futbolchilarning sport faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish, shuningdek, ularning musobaqa faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan tayyorgarlik tizimini shakllantirish uchun muhim normativ asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Futbolda hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish masalasi so'nggi yillarda sport ilmda muhim yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Artikov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hujum chizig'i o'yinchilarining texnik va taktik faoliyati, ularning o'yin jarayonidagi pozitsion o'zgarishlari va hujum samaradorligiga ta'siri atroflicha yoritilgan. Muallif hujum harakatlarining natijadorligi individual texnika va jamoaviy taktikaning uyg'unligiga bog'liqligini ilmiy asosda ko'rsatib bergan. Karimovning tadqiqotlarida esa yosh futbolchilarning hujum harakatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, hujumda qo'llaniladigan texnik elementlarning o'yin natijalariga bevosita ta'siri isbotlangan.

Futbolchilarning hujum faoliyatini takomillashtirishda taktik tayyorgarlik masalalari Bektorov tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, unda hujum jarayonida qaror qabul qilish tezligi, o'yin vaziyatini baholash va to'p uzatish aniqligi muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Ilyosboyevning ilmiy ishlarida esa O'zbekistonda futbol infrazuzilmasi, yosh futbolchilarni tayyorlash tizimi hamda musobaqa faoliyatini statistik tahlil qilish masalalari keng yoritilgan. Muallif futbolchilar faoliyatini baholashda miqdoriy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlarini ham inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Talaba va yosh futbolchilarning hujum harakatlarini shakllantirishda jismoniy tayyorgarlikning o'rni Islomov, Shaniyazov va Arziyev tadqiqotlarida alohida e'tirof etilgan. Ushbu ishlarda hujumni markaz va qanot zonalaridan tashkil etish, qarshi hujumlarning samaradorligi hamda yakuniy zarbalar sifati tahlil qilingan. Muhammadovning ilmiy-o'quv qo'llanmasida hujum va himoya taktik harakatlarini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilib, hujum samaradorligini oshirishda tizimli yondashuv muhimligi ko'rsatib berilgan. Sirojovning tadqiqotlari esa jismoniy tarbiya va sport ta'limida metodik tayyorgarlik, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sport faoliyatining pedagogik asoslarini ochib beradi, bu esa talaba futbolchilarning hujum faoliyatini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda 18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonidagi hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida kompleks empirik usullardan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari rasmiy musobaqalar davomida o'tkazilgan pedagogik kuzatuv, videoanaliz va musobaqa statistik protokollarini o'rganish orqali to'plandi. Hujumlar soni, to'p uzatish aniqligi, jarima maydoniga uzatmalar, gol imkoniyatlari va hujum samaradorligi kabi ko'rsatkichlar qayd etildi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlanib, deskriptiv statistika, korrelatsion tahlil hamda regressiya usullari qo'llandi. Statistik hisob-kitoblar maxsus dasturiy vositalar yordamida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari hujum ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash va ularning musobaqa samaradorligiga ta'sirini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tahlili

Umumiy yondashuv va metodologiya

Futbolda hujum harakatlari – o'yinning eng dinamik va natijaviy qismi bo'lib, o'yinchi yoki jamoa tomonidan gol urish maqsadida amalga oshiriladigan to'p bilan bog'liq harakatlar majmuasidir. Hujum samaradorligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan miqdoriy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- hujumlar soni (umumiy va gol imkoniyatlariga olib kelgan);
- to'p uzatishlarning aniqligi (foizda);

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5368-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-3578121>



- jarima maydoniga aniq uzatilgan to'plar soni;
- gol imkoniyatlarini yaratish;
- hujum muvaffaqiyati (gol urishlar sonining hujumlar soniga nisbati).

Sifat ko'rsatkichlari esa hujum mexanizmlarining natijaviy jihatlarini yoritadi, jumladan:

- hujum strategiyasi (to'g'ridan-to'g'ri hujum, pozitsion hujum, qarshi hujum);
- o'yin variantlarining samaradorlik darajasi;
- hujum chizig'ida individual harakatlarning adaptatsiyasi.

Tahlil uchun 18–21 yoshdagi 50 nafar talaba futbolchining 2024–2025 mavsumidagi musobaqa statistik ma'lumotlari yig'ildi. Olingan ma'lumotlar SPSS dasturi yordamida korrelatsion tahlil, multiple regressiya va deskriptiv statistika usullari asosida qayta ishlanib tahlil qilindi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar tahlili. Hujumlar soni va to'p uzatish aniqligi

1-jadval: Talaba futbolchilarning hujum bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlari³

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat	Mediana	Standart og'ish
Hujumlar soni (o'yin)	13.7	14	3.8
To'p uzatish aniqligi (%)	78.4	79.0	6.5
Jarima maydoniga uzatishlar	7.1	7	2.3
Gol imkoniyatlari	4.8	5	1.6

Ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelatsiya

2-jadval: Miqdoriy ko'rsatkichlar orasidagi korrelatsion tahlil⁴

Ko'rsatkichlar	r-koeffitsient	p-qiymat
Hujumlar soni va gol imkoniyati	0.65	0.001
To'p uzatish aniqligi va gol imkoniyati	0.72	0.000
Jarima maydoniga uzatishlar va gol imkoniyati	0.61	0.003

Sifat ko'rsatkichlar tahlili

Hujum strategiyalari samaradorligi

Tahlil natijalari futbolda uchta asosiy hujum strategiyalari bo'yicha samaradorlikni ko'rsatadi:

3-jadval: Hujum strategiyalarining samaradorlik ko'rsatkichlari⁵

Hujum strategiyasi	O'rtacha gol imkoniyati	Gol urishlar soni
To'g'ridan-to'g'ri hujum	5.2	1.8
Pozitsion hujum	4.5	1.5
Qarshi hujumlar	3.9	1.2

Individual futbolchi xatti-harakati va samaradorlik

Hujum jarayonida individual xatti-harakatlarning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, hujum zonasidagi pozitsion harakatlar va to'p uzatish aniqligi o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjud:

- to'p uzatishdan oldin bajariladigan uchta muhim harakat (statik pozitsiyani to'g'rilash, raqibni aniqlash, bo'sh zonani topish) gol imkoniyatlari sonini 27 % ga oshiradi;
- qarshi hujumlarda tejamkor paslardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lib, natijada gol urish ehtimoli ortadi.

3 Izoh: O'rtacha hujumlar soni 13.7 bo'lib, to'p uzatish aniqligi 78.4% darajasida qayd etildi. Bu hujum samaradorligi bo'yicha yuqori darajadagi texnik tayyorgarlikni anglatadi.

4 Izoh: To'p uzatish aniqligi bilan gol imkoniyati o'rtasidagi yuqori korrelatsiya ($r=0.72$, $p<0.001$) futbolchilarning texnik tayyorgarligi hujum samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini bildiradi.

5 Izoh: To'p uzatish aniqligi bilan gol imkoniyati o'rtasidagi yuqori korrelatsiya ($r=0.72$, $p<0.001$) futbolchilarning texnik tayyorgarligi hujum samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini bildiradi.



Bu holat individual tayyorgarlik hujum metodikalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Model tahlili: regressiya yondashuvi

Multiple regressiya tahlili asosida hujum samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar aniqlandi:

$$Y = 0,39X_1 + 0,45X_2 + 0,27X_3 + \varepsilon$$

bu yerda:

Y – hujum samaradorligi (gol imkoniyati indeksi);

X₁ – hujumlar soni;

X₂ – to'p uzatish aniqligi;

X₃ – jarima maydoniga uzatishlar;

ε – tasodifiy xatolik.

Izoh: Model natijalariga ko'ra, to'p uzatish aniqligi hujum samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida aniqlangan.

Natijaviy tahlil va muhokama

Olingan tahliliy natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. **Texnika va taktikani uyg'unlashtirish:** to'p uzatish aniqligi hujum samaradorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkich bo'lib, uning yuqori darajasi gol imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.
2. **Strategik yondashuv:** to'g'ridan-to'g'ri hujum strategiyasi eng yuqori gol imkoniyatlarini yaratadi, biroq pozitsion hujumlarda ham yuqori darajada uyushgan jamoaviy harakatlar talab etiladi.
3. **Individual futbolchi kompetensiyalari:** individual xatti-harakatlar hujum jarayonida samaradorlikni oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning hujum harakatlarini tahlil qilish ularning musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Hujum parametrlarini muntazam monitoring qilish hamda statistik tahlil asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish sport natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Takliflar

1. Hujum mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida to'p uzatish texnikasini o'quv-mashg'ulot jarayonida intensiv va tizimli ravishda o'rgatish.
2. Analitik monitoring tizimini joriy etish orqali har bir futbolchining hujum ko'rsatkichlarini onlayn platformalarda doimiy qayd etib borish.
3. Klub va universitetlar o'rtasida integratsiyani kuchaytirish, futbol statistikasi va tahlil tizimlarini joriy etish orqali yosh futbolchilarning individual rivojlanish xaritasini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Artikov A. Futbol rivojlanishining hozirgi bosqichida hujum chizig'i o'yinchilari faoliyati. Modern Science and Research, 2022. Hujum chizig'i o'yinchilari faoliyatining texnik va taktik tahlili, o'yin jarayonidagi pozitsional o'zgarishlari haqida ta'riflar berilgan.
2. Bektorov O. Y. Tactical training of football players. Mental Journal, 2025. Maqolada futbolchilarning taktika bo'yicha mashg'ulot jarayoni va hujum harakatlarini takomillashtirish usullari yoritilgan.
3. Ilyosboyev S. B. O'zbekistonda futbolning ko'p qirrali rivojlanishi. Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2025. Futbol infratuzilmasi, yosh futbolchilarni tayyorlash va musobaqalardagi statistik tahlil asosida futbolning milliy taraqqiyoti ko'rib chiqilgan.
4. Islomov I. Talabalik va yoshlarda hujum harakatlari texnikasi va taktikasini o'rganish (konferensiya materiali). So'nggi yillar ichida e'lon qilingan ilmiy nutq va tahliliy ishlar O'zbekiston sharoitida hujum ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilayotganini tasdiqlaydi.
5. Karimov A. Studying the attacking actions of young football players (ilmiy maqola). 2023. Ushbu ishda sport maktablarida futbolchilarning hujum harakatlari tizimli ravishda o'rganilib, taktika va texnik elementlarning o'yindagi roli hamda natijalarga ta'siri tahlil qilingan.
6. Muhammadov M. G. Futbolda hujum va himoya taktik harakatlarini takomillashtirish. Ilmiy-o'quv qo'llanma. – O'zbekiston, 2025. Ushbu manbada hujum va himoya tizimlari bo'yicha taktika, o'yin parametrlarini aniqlash va o'rganishga doir



metodik tavsiyalar berilgan.

7. Shaniyazov I. R., Arziyev Sh. A. Yosh futbolchilarning hujum taktik harakatlarini shakllantirishda jismoniy tayyorgarlikning o'rni. Inter Education & Global Study, 3-jild, 4-son, 2025. Maqolada futbolchilarning hujumni markaz va qanot zonalaridan tashkil etishi, hujumlar samaradorligi hamda yakuniy zarbalar tahlil qilingan.
8. Sirojov O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Mono-grafiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
9. Sirojov O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
10. Sirojov O. O. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2020. – 162 b.
11. Sirojov O. O. Physical education and sports – the basis of a healthy lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – Jild 05, № 10. – B. 1232–1234. – ISSN 2692-5206.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.